

Olimov Muhammadqosim Hoshimovich
Buxoro davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
olimovmuhammadqosim58@gmail.com

BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA XOJA AHROR VALI HAQIDA

Annotatsiya. Maqolada Bobur mirzoning "Boburnoma" asarida naqshbandiya tariqatining ulug' avliyosi va uning izchil davomchisi Xoja Ahror Vali (Xoja Ahror Ubaydulloh) haqidagi fikrlari jamlangan va masala yuzasidan muallifning nuqtai nazarini bayon etilgan. Asarda Xoja Ahror Vali Boburning ota tomonidan bobosi sulton Abusaid mirzoning piri ekani, Xoja otasi Umarshayx mirzoni o'z farzandi sifatida qabul qilgani, Boburning o'zi yoshligidan shu ta'limot asosida tarbiya topib voyaga yetgani, Xojaning temuriylar saltanatini mustahkamlash, o'zaro toju - taxt kurashlarining oldini olish borasidagi xizmatlari atroflicha yoritilgan.

Asarda Xoja Ahror Valining ulug' pir va ustoz sifatida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Bobur mirzolarining hayoti va ijodiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatgani bayon etilgan.

Kalit so'zlar: hukmdor, pir, alloma, valiy, xoja, murid, madrasa, tariqat, soliq, adolat, ixlos, meros.

О ХОДЖЕ АХРАРЕ ВАЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ БАБУРА «БАБУРНАМЕ»

Аннотация. В статье обобщаются мысли Бабура Мирзы о великом святом ордена Накишбанди и его последовательном последователе Ходже Ахроре Вали (Ходжа Ахроре Ubaydulloh) в его произведении «Баburnома», а также представлена авторская точка зрения по данному вопросу. В работе Ходжа Ахрор Вали Баbur был старшим своего деда по отцовской линии, Султана Абусаида Мирзы, Ходжа принял отца Умаршейха Мирзу как своего сына, сам Баbur с юности воспитывался на основе этого учения, в работе подробно описаны заслуги Ходжи в укреплении Тимуридского царства и предотвращении межкоронно-тронной борьбы.

В работе утверждается, что Ходжа Ахрор Вали оказал большое положительное влияние на жизнь и деятельность Абдурахмана Джамии, Алишера Навои и Бабура Мирзы как великий старейшина и учитель.

Ключевые слова: правитель, пир, аллама, вали, ходжа, мюрид, медресе, тарикат, налог, справедливость, преданность, наследство.

ON KHWAJA AHRAR VALI IN BABUR'S "BABURNAMA"

Annotation. The article summarizes the thoughts of Babur Mirza about the great saint of the Naqshbandi order and his consistent follower Khoja Ahror Vali (Khoja Ahror Ubaidullah) in his work "Baburnoma", and also presents the author's point of view on this issue. In the work of Khoja Ahror Vali Babur was the elder of his paternal grandfather, Sultan Abusaid Mirza, Khoja accepted his father Umarshaykh Mirza as his son, Babur himself was brought up on the basis of this teaching from his youth, the work describes in detail Khoja's merits in strengthening the Timurid kingdom and preventing inter-crown-throne struggle.

The work argues that Khoja Ahror Vali had a great positive influence on the life and work of Abdurrahman Jami, Alisher Navoi and Babur Mirza as a great elder and teacher.

Key words: ruler, pir, allama, wali, hoja, murid, madrasah, tariqa, tax, justice, devotion, inheritance.

Kirish. "Boburnoma" asarida Xoja Ahror Vali (Hazrat Xoja Ubaydulloh) musulmon olamining ulug' piri, naqshbandiya tariqatining yirik davomchisi sifatida ulug'lanadi.

Xoja Ahror 1404-yilda Toshkent viloyatining Bog'iston qishlog'ida o'qimishli, ma'rifatparvar oilada tavallud topgan.

Xoja Ahror 1427-yili Samarqand shahriga kelib Qutbiddin madrasasida tahsil olgan, keyinchalik ilm olishni mustaqil ravishda davom ettirgan.

Xoja Ahror 1428-yilda Hirotga borib, u yerda 5 yil yashab, o'z davrining diniy rahnamolari Shayx Bahouddin Umar va Shayx Zayniddin Havofiylardan naqshbandiya tariqatiga oid sir - asrorlarni o'rgangan.

U 1433-yil Chag'oniylar viloyatida yashovchi Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdlari mavlono Ya'qub Charxiyga shogird tushib, u kishini ma'naviy pir sifatida qabul qilgan. Keyinchalik oq fotiha olib, o'z yurtiga qaytadi, dehqonchilik bilan shug'ullanib, tez orada juda katta mol - mulkka ega bo'ladi.

Xoja Ahror Vali yirik yer egasi edi, u o'z daromadlarining bir qismini madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa diniy binolarning qurilishi uchun sarflagan, xalqqa solingan soliqlarni to'lashga yo'naltirgan. Xoja Ahror Vali o'z faoliyati davrida fuqarolar osoyishtaligi, hunarmand va tijorat ahlining ravnaqi yo'lida ko'p xizmatlar qilgan. Jumladan, Samarqand hukmdori sulton Ahmad mirzo tomonidan xalqqa solingan 10 ming kumush tanga soliqni, Boburning otasi Farg'ona hokimi Umarshayx mirzo tomonidan aholiga solingan 250 ming dinor soliqni Xoja Ahror Vali bu summani o'z hisobidan to'lab, aholini soliq jabridan qutqargan. Shuningdek, 1460 yili Samarqanddan Hirotga kelgan Xoja podshohning aholidan olinadigan tamg'a solig'ini bekor qilishiga erishadi va shu yo'l bilan aholiga juda katta soliq imtiyozlari beriladi.

Xoja "Inson dunyoda ma'naviy vazifasini bajarishi uchun siyosiy hukmronligidan ham foydalanish zarur", degan shior asosida faoliyat olib borib, bu shior naqshbandiya tariqati falsafasining keyingi ijtimoiy - siyosiy faoliyatini belgilab bergan. Hukmdorlar orasidagi turli bahsli muammolarni urushsiz, qon to'kishlarsiz, munozaralar yo'li bilan tinch - osoyishta hal etish mumkin deb hisoblagan va muntazam shu qoidaga amal qilib, ijobiy natijalarga erishgan.

Xoja Ahror Valining mavqei Samarqand sultonlari sulton Abusaid mirzo va sulton Ahmad mirzolar davrida ayniqsa yuksak bo'lgan. Temuriyzoda sulton Abusaid mirzo Xoja Ahror Valini o'zining piri deb bilar edi.

Bu sultonlar Xojaning taklif va fikrlarini inobatga olishgan, har bir muhim tadbirni Xoja bilan bamaslahat amalga oshirishgan. Bunda uning teran aqli, bilimdonligi, xalq manfaatini ko'zlab qilgan fatvolari asos bo'lgan.

Xoja Ahror Vali el - yurt, xalq manfaati uchun temuriy shahzodalar o'rtasida avj olgan o'zaro toju taxt kurashlarida juda ko'p marta vositachilik qilib, masalalarni tinch yo'l bilan hal etgan. Jumladan, 1462-yili temuriyzoda Muhammad Jo'qi mirzo sulton Abusaid mirzoga qarshi bosh ko'tarib, Shohruxiya shahrini qamal qilganda Xoja Ahror Vali ikki tomonni murosaga keltirib, qo'zg'olonni bostirishga erishgan va barchani sulton Abusaid mirzoga bo'ysundirib berishga erishgan.

Bobur mirzo Samarqand sultoni sulton Ahmad mirzoning Xoja Ahrorga munosabati to'g'risida shunday yozgan edi: "Hazrati Xoja Ubaydullohga irodati bor edi. Hazrati Xoja anga murabbiy va muqavviy erdilar. Samarqand ahlikim, yigirma - yigirma besh yil sulton Ahmad mirzoning zamonasida rafoiyat va farog'at bilan o'tkarib edilar, askar muomala Hazrat Xoja Ubaydulloh jihatidan adl va shar' tariqi bila edi" [2, 24 b.].

Sulton Ahmad mirzo vafotidan so'ng, 1494 yilda Samarqand taxtiga o'tirgan sulton Mahmud mirzo mamlakatni boshqarishda adolatsizliklarga yo'l qo'ya boshlaydi. Sulton zulmidan xalq noroziligi kuchayadi, u Xoja Ahror Valining farzandlariga nisbatan ham bepisandlik va qo'pol muomaladi bo'ladi. Bu holat "Boburnoma"da quyidagicha keltiriladi: "Hazrati Xoja Ubaydullohning mutaalliqalarig'akim, burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bilan zulm va taaddidin xalos bo'lurlar edi, ne joy ulkim, alarg'a mundoq takliflar bo'lg'ay, ko'p taaddi va tashaddud qila boshladi" [2, 24 b.]. Sultonning bunday zulm va sitamlarni Xojaning avlodlariga nisbatan ham qilgani asarda quyidagicha keltiriladi: "Bu nav' zulm va fisqdin ba jonu dil ozurda va ranjida bo'ldilar va zev va sharif va faqir va miskin nafrin va duoyi

64 badg'a og'iz ochib, qo'l ko'tardilar. Lojaram zulm va fisqning shomatidan Samarqandta besh - olti oy hukumat qilmadi" [2, 24 b.].

Bobur mirzo Xoja Ahror Valiga hurmat - ehtirom ruhida tarbiyalangan, bu zotning ruhlari unga bir necha marta ko'makka kelgan, Xoja Ubaydullohning o'g'illari, Xoja Abdullo, Xojago Xoja, Xoja Yahyolar bilan uchrashib, ularning suhbatini olgan, ularga bo'lgan yaxshi munosabatini asarida alohida e'tirof etgan.

Jumladan, Xoja Yahyo bilan ilk bora 1496-yilda uchrashgan, Xoja Abdulloni esa 1501 yili Toshkentda ekanida borib ko'rgan va duosini olgan edi. Bobur mirzo ilk bora Samarqandni egallaganida Xojaning o'g'illari Xoja Yahyo uni qo'llab - quvvatlagan edi.

Bobur mirzo Samarqandni egallash tashvishida yurgan kezlari Xoja Ubaydulloh tushiga kirib, qo'llab - quvvatlagani va shu tufayli Samarqand taxtini egallaganini alohida ta'kidlaydi: "O'shul fursatta ajab tush ko'rdum. Tush ko'rarmankim, hazrati Xoja Ubaydulloh kelmishlar, men istiqbollarig'a chiqmishmen, Xoja kelib o'lturdilar. Xojaning olig'a g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig'a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo bilan dedimkim, mendin emasdur. Dastorxon solg'uchi taqdir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushti. Qo'ptilar. Uzata chiqtim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutub andoq ko'tardilarkim, bir oyog'im yerdin qo'pti. Turkiy dedilarkim: "Shayx maslahat berdi". O'shul necha kunda - o'q Samarqandni oldim" [2, 75 b.].

Bobur mirzo Xoja Ubaydullohning ruhi va uning avlodlari hatto o'limdan ham saqlab qolganini ajib bir ruhiyat bilan bitgan. Jumladan, 1502 - 1503 yillar atrofida Bobur Karnon qishlog'ida yakka - yolg'iz qolganida bo'lib o'tgan bir voqeani keltiradi. "O'zumni o'limga qaror berdim. O'shal bog'da bir suv oqib keladur edi, vuzu qildim, ikki rak'at namoz o'qudum, boshimni munojotga qo'yub, tilak tiladur edimkim ko'zum uyquga boribtur. Ko'radurmenkim, Xoja Ya'qub, Xoja Yahyoning o'g'li, hazrati Xoja Ubaydullohning nabiralari, ro'baro'yimda ablaq ot minib ko'p jamoati ablaqsavor bilan keldilar. Dedilarkim: - G'am yemangiz, Xoja Ahror meni sizga yubordilar. Dedilarkim, biz (Xoja Ahror) alar (Bobur)g'a istionat tegurub, podshohlig' masnadig'a o'lturg'uzubbiz. Har yerda mushkil ish tushsa, bizni nazarg'a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo'lurbiz. Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. Bosh ko'taring, uyg'oning" [2, 107 b.].

Unga yordamga kelgan do'sti Qutlug' Muhammad barlos ham shunday deydi: "Men tush ko'rdimkim, Xoja Ubaydulloh dedilarkim: "Bobur podshoh Karnon degan kenttadur, borib ani olib keling, podshohlik masnadi anga taalluq bo'lubtur" [2, 108 b.].

"Boburnoma"da Shayboniyxon Samarqandni egallaganidan so'ng, Xoja Ahror Valining farzandlarini turli hiyla yo'li bilan o'ldirgani munosabati bilan o'zining keskin fikrini bayon etadi. Bobur mirzoning bu voqealarni bayon etgani uning Xoja Ubaydullohga bo'lgan cheksiz hurmat - ehtiromi, hamisha u kishining ruhidan madad olgani, shuningdek, uning avlodlariga bo'lgan cheksiz hurmatini ko'rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni zabt etganidan keyin, 1526-yili xalqqa yengillik bo'lishi uchun yerli aholidan tamg'a solig'i olishni bekor qiladi. U bu soliqni bekor qilar ekan, shunday ezgu amalni joriy etishni ancha yillardan beri niyat qilib yurganligini alohida ta'kidlagan. Yuqorida keltirganimizdek, bunday xalqparvarlik namunasi sulton Abusaid mirzo zamonasida Xoja Ahror Vali taklifi bilan amalga oshirilgan, bu voqea Bobur mirzoga juda katta ijobiy ta'sir qilgan edi.

Boburning otasi Umarshayx mirzo Xoja Ahror Valiga ixlos qo'ygan kishi edi. Bobur mirzo ham shu yo'ldan borib, uning tariqati ruhida tarbiyalangan va umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qolgan shaxs sanaladi.

Tabiiyki, Xoja Ahror Valining muxlislari toifasi va shogirdlari xilma - xilligi bilan ajralib turadi. Ular orasida ulug' mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar o'zlarining ma'naviy ustozlari, ulug' piri va rahnamosi sifatida yuksak ehtirom ko'rsatganlar va o'z asarlarida pining amalga oshirgan ezgu - amallarini targ'ib qilib kelganlar.

Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy "Tuhfat ul - ahror" kitobini Xoja Ahror Valiga bag'ishlab, u kishini "Ka'bai maqsud", Alisher Navoiy "Qutbi tariqat", Bobur mirzo Hazrat Xoja Ubaydulloh deb hurmat bilan tilga olgan.

Alisher Navoiy "Hayrat ul - abror" asarida uni "murshidi ofoq" ya'ni olamning ma'naviy rahbari bo'lgani uchun shohlar ham o'zlarini uning quli deb bilganlar, uning murid va muxlislari, darhaqiqat podshohlik darajasida turadilar, deydi. Shoir "Koinot boricha uning dabdabasi savlat to'kib tursin", deb maqtaydi. Shuningdek, "Xojalar xojasi", "Barcha narsaning mohiyatini tushunib yetgan inson", "Bu tabarruk insonning salovati va kuchidan odamlar bosh egishgan", deb ta'riflaydi.

"Boburnoma"da shoir Sharafuddin Abu Abdulloh Bo'siriy (1213 - 1295 yillar) qattiq kasallikka chalinganida payg'ambarga atab "Qasidai Burda" qasidasini yozib tugatishi bilan ixlos va aqida kuchi bilan falaj kasalligidan shifo topganini eslab, qattiq kasallikka chalingan Bobur mirzo 1528-yilda Xoja Ahror Valining "Volidiya" asarini shu niyat bilan tarjima qilishga kirishar ekan, Hazratning ruhidan madad istagan, bu ish yakuniga yetmasdan turib, kasallikdan forig' bo'la boshlagan va buni quyidagicha ta'riflaydi: "Tengri inoyati bila, hazratning himmatidin panjshanba kuni oyning yigirma to'qquzida andake afsurda bo'ldi, o'zga bu orizadin xalos bo'ldum" [2, 318 b.].

Xulosa. S "Volidiya" asarini tarjima qilish orqali Bobur mirzo bu ulug' siymoga bo'lgan cheksiz hurmatini bildirib, uni ulug' ustoz, madadkor va hidoyat qiluvchi shaxs sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga bu asarni o'zbek tiliga tarjima qilishdan yana bir maqsadi ota tilidan diniy - tasavvufiy o'gitlarni o'z farzandlariga yetkazish niyatida nazmda o'g'irgan edi.

Xoja Ahror Valining ilmiy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, shuningdek, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Hindiston va boshqa islom davlatlarida ham tasavvuf va ma'naviyat muxlislari qalbidan joy olgan bo'lib, naqshbandiya tariqatining boy manbasi hisoblanadi.

Bobur mirzo Xoja Ubaydullohning naqshbandiya tariqatini Hindiston hududiga keng yoyilishida munosib hissa qo'shganligi bilan alohida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartold V. V. "Ulug'bek i yego vremya". Moskva, Nauka - 1964 god.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma". Toshkent - 2019 yil.
3. Valixo'jayev B. Xoja Ahror tarixi Toshkent - 1994 yil.
4. Arminiy Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi". Toshkent - 2024 yil.
5. Gleb Golubev Mirza Ulugbek. Moskva - 1960 god.
6. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi". Toshkent - 1979 yil.
7. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, Sharq - 1998 yil.
8. Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi". Toshkent - 2024 yil.
9. A. Muhammadkarimov "Toshkent allomalari va tarixiy shaxslari". Toshkent - 2009 yil.
10. Alisher Navoiy "Xamsa". Toshkent - 2019 yil.
11. Maqsud Shayxzoda Ulug'bek mirzo. Toshkent - 1964 yil